

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМДА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ
ЁНДАШУВЛАР : ИСТИҚБОЛЛАР, МУАММОЛАР
ВА ЕЧИМЛАР**

(Республика масофавий илмий-амалий анжумани)

БУХОРО, 2020 йил, 3-ноябрь

**1- SHO'BA : MAKTABGACHA TA'LIMNI
RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR
VA XALQARO TAJRIBALARNI QO'LLASH**

**JAHON MAKTABGACHA TA'LIMI RIVOJIDA MONTESSORI
PEDAGOGIKASINING AHAMIYATI.**

*BuxDU Makabgacha ta'lim kafedrasi mudiri, p.f.n. dotsent
Hasanova G. Q.*

Annotatsiya: maqolada jahon rivojlangan davlatlari maktabgacha ta'lim tizimida noan'anaviy mashg'ulotlarning o'rni va bu mashg'ulotlarni tashkil etishda Montessori pedagogikasi va uning ahamiyati haqida bayon etilgan.

Tayanch iboralar: noan'anaviy mashg'ulotlar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, noan'anaviy metodlar texnologiyasi, Montessori pedagogikasi.

Аннотация: В статье рассматривается роль нетрадиционных уроков в системе дошкольного образования в развитых странах мира, педагогика Монте梭ри и ее роль в организации этих уроков.

Ключевые слова: нетрадиционные уроки, современные образовательные технологии, нетрадиционные методы технологии, педагогика Монте梭ри.

Annotation: The article reveals the role of non-traditional classes in the system of preschool education in developed countries and the importance of Montessori concept in the organization of these classes.

Key words: traditional lessons, modern educational technologies, technology of non-traditional methods, Montessori pedagogy.

“Barcha ota – onalar farzandlarini aqlli, maktabda yaxshi baholarda o'qishini xohlashadi. Buning uchun esa maktabgacha davrdan boshlab bolalarni mashg'ulotlarga, o'qishga qiziqтира borish kerak”, - deb ta'kidlaydi rivojlangan davlatlar psixologlari. Davr rivojlanib borayotganligi sababli oddiy faoliyat turlari bilan bolalarni qiziqtirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham barcha rivojlangan davlatlar

maktabgacha ta'lim tizimida an'anaviylikdan yiroqlashib bolalar ta'lim – tarbiyasida ijodiy yondashmoqdalar. Montessori maktabgacha ta'lim muassasalari bunga namunadir. Montessori maktabgacha ta'lim muassasalari 25 ta rivojlangan mamlakatlarda tarqalgan bo'lib, bu muassasalardagi barcha mashg'ulotlar noan'anaviy tarzda tashkil etiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarining asosiy maqsadi - bolalarga kontsentratsiya, motivatsiya, o'zini tuta bilish va o'rganishga bo'lgan erkin qiziqishni rivojlantirishdan iboratdir. Montessori maktabgacha tarbiya muassasasida bolalar an'anaviy sinflarda o'z tengdoshlari bilan bir xil tushunchalarni anglaydilar, ammo bu g'oya shundan iboratki: bolalar xona atrofida erkin harakatlanish va keng ko'lamli amaliy mashg'ulotlardan birini tanlash orqali individual va o'z xohish – istaklari asosida bilim olishlari kerak. Montessori maktabgacha ta'lim muassasalarida bolaga yo'naltirilgan ta'lim asosida pedagoglar mas'uliyatni his etgan holda mashg'ulotlar tashkil etishadi. Bola dastlab maktabgacha ta'lim muassasasiga tashrif buyurganda faqatgina o'z-o'ziga xizmat qilishni o'rganadi. Shaxsiy buyumlarini shkafga joylashtiradi, guruhni tartibga solishga yordamlashadi va eng qiziqarlisi barcha guruh bolalari pedagog bilan birgalikda o'zlari uchun turli tuman mevali va sabzavotli gazaklar tayyorlashadi. Iste'moldan so'ng esa har bir bola o'z idishini o'zi yuvib qo'yadi.

Sut, suv, sharbatlarni o'zlari xohlagan vaqtda iste'mol qilishadi. Ya'ni oddiy kundalik hayot yumushlari orqali bolada mustaqillik tuyg'usi o'rgatilib boriladi. Keyingi bosqichda bolalar mashg'ulotlar davomida bajargan ijodiy asarlarini o'zlari baholashadi, kamchiliklarini aytib o'tib, yutuqlarini ta'kidlashadi. Buning natijasida esa barcha bolalarda erkin fikrlash qobiliyati vujudga keladi va bolalar o'z fikrlarini kattalar yonida qo'rqmasdan ayta oladilar. Montessori maktabgacha ta'lim muassasalarining o'quv dasturi besh qismdan iborat. Bular quyidagilar:

- Amaliy mashg'ulotlar;
- Hissiy rivojlanish;
- Matematika mashg'ulotlari;
- Chet tillari mashg'ulotlari;
- Madaniyatshunoslik mashg'ulotlari.

Amaliy mashg'ulotlarda bolalar kiyinish, gazak tayyorlash, dasturxon yozish, o'simliklar va hayvonlarga g'amxo'rlik qilish kabi kundalik

hayotiy ko'nikmalarni o'rganadilar. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlar davomida ijtimoiy hayotda tengdoshlari bilan muloqot qilish va muloqotdagi eng zaruriy iboralar bilan tanishadilar. Masalan:

- iltimos qilish;
- minnatdorchilik bildirish;
- mehribon va foydali bo'lish
- gapni to'xtatmasdan tinglash;
- nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish.

Amaliy mashg'ulotlarda o'ziga xos ko'nikmalarni o'rgatishdan tashqari, mustaqillikni va biron kishining fikriga qo'shilmasa norozilik bildirish ham o'rgatiladi. Hissiy rivojlanish yo'nalishida bolalar dunyoni turli xil sezgi azolari bilan his etish, sezgilar orqali predmetlarni idrok etish mahoratini takomillashtiradilar va mustaqil tarzda o'zlarining tajribalarini o'tkazadilar. His – tuyg'ularini mustaqil tarzda tushuntira berishni o'rganadilar. Mashg'ulotlar davomida predmetlar, buyumlarni o'zlari xohlagancha yangicha nomlaydilar. Sensorli o'rganish bolalarga atrofni tasniflashga va sezgi organlarining rivojlanishiga yordam beradi. Bu matematikada, geometriyada va tilda zarur bo'lgan qobiliyatlarni tasniflash, saralash va ajratish qobiliyatini rivojlantirish orqali o'rganish uchun asos yaratadi. Matematika mashg'ulotlarda bo'limida bolalar amaliy mashg'ulotlar orqali raqamlarni aniqlashni, amallarni buyumlar orqali miqdoriga moslashtirishni va 10 lik tizimini, qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lishni mashq qiladilar. Shuningdek, ular raqamlash tizimidagi mashqlarni o'rganadilar. Bolalar matematik faktlarni yodlashdan tashqari ko'proq amaliy jihatdan narsalar yordamida (kub, shar, o'yinchoqlar, idishlar) miqdor qiymatini, misollarni hisoblab beradilar.

Tilshunoslik mashg'ulotlarida bolalar o'z ona tillarini o'rganadilar. Mashg'ulotlarda bolalarning so'z boyligi oshiriladi yozish va o'qish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Amaliy materiallardan foydalangan holda, bolalar harflar tovushlarini, so'zlarni qanday qilib birlashtirishni, qanday qilib jumlar tuzishni o'rganadilar. Ushbu ko'nikmalarga ega bo'lgach, bolalarda o'z-o'zidan o'qish ko'nikmasi hosil bo'ladi. Montessori maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga yozish faqat qalamlarda o'rgatiladi. Madaniyatshunoslik mashg'ulotlari. Tarix, geografiya, san'at va musiqa kabi ko'plab mavzular o'quv dasturining madaniy yo'nalishi bo'yicha darslarda birlashtirilgan. Bolalar o'zlarining hamjamiyati va atrofidagi

dunyo haqida ma'lumot olishadi. Odamlar va joylar o'rtasida o'xshashliklar va farqlarni aniqlash ularga dunyomizning xilma-xilligi to'g'risida tushuncha va ma'lumotlarni to'laligicha berib borishadi. Borliqdagi barcha jonzotlarni asrashni, ular haqida g'amxo'rlik qilishni o'rgatishadi. Madaniyatshunoslik mashg'ulotlari ham amaliy tarzda tashkil etiladi. Bolalar muzeylarga, madaniyat tashkilotlariga, mashhur insonlar uylariga, hayvonot bog'lariga, hattoki davlat organlari uyushmalariga pedagoglar bilan birgalikda tashrif buyurishadi. Ularning ishlarini kuzatishadi. Savollar berib, o'zlarini qiziqtirgan hodisalar haqida bahs-munozaralar tashkil etishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Александра Лосева. Монессори, Мария // Энциклопедия «Кругосвет».

1. Монессори, Мария // Многоножки — Мятлик. — М: Советская энциклопедия, 1954. — С. 260. — (Большая советская энциклопедия : [в 51 т.] / гл. ред. Б. А. Введенский ; 1949—1958, т. 28).

2. <https://amshq.org/About-Montessori/Inside-the-Montessori-Classroom/Early-Childhood>

3. Камилова Г.А, Курбанова Г.Р, Джаббарова С.З. Особенности формирования педагогических навыков у воспитателей дошкольно-образовательных учреждений.// АКАДЕМИ. Научно-методический журнал, 2020 №5 (56). С.25-27.